



“YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI RAQAMLASHTIRISH VA DAVLAT KADASTRLARI MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA, ILM-FAN YUTUQLARI HAMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
18-19 aprel, 2023-yil., Samarqand, O'zbekiston.

Материалы международной научно-практической конференции по теме:
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ НАУЧНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЦИФРОВИЗАЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ КАДАСТРОВ».

18-19 апрель, 2023 года, Самарканд, Узбекистан.

Materials of the international scientific and practical conference on the topic:
“ACTUAL PROBLEMS OF IMPLEMENTATION OF SCIENTIFIC ACHIEVEMENTS AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DIGITALIZING THE USE OF LAND RESOURCES AND IMPROVING THE STATE CADASTRES RELATIONS”.

April 18-19, 2023 y., Samarkand, Uzbekistan.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**ME'MORCHILIK va QURILISH
MUAMMOLARI**
(ilmiy-texnik jurnal)

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА
(научно-технический журнал)

PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION
(Scientific and technical magazine)

MAXSUS SON

“Yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirish va davlat kadastrlari munosabatlarini takomillashtirishda ilm-fan yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tanlangan ilmiy ishlar to'plami.

СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

Сборник избранных научных работ международной научно-практической конференции на тему: «Актуальные проблемы внедрения научных достижений и инновационных технологий в цифровизацию использования земельных ресурсов и совершенствование отношений государственного кадастра».

SPECIAL VOLUME

Collection of selected scientific papers of the international scientific and practical conference on the topic: "Actual problems of implementation of scientific achievements and innovative technologies in digitalizing the use of land resources and improving the state cadastres relations".

SAMARQAND



ME'MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

(ilmiy-texnik jurnal)
(научно-технический журнал)
(Scientific and technical magazine)

2023, махсус сон
2000 yildan har 3 oyda
bir marta chop etiladi
ISSN 2901-5004

Журнал ОАК Ҳайъатининг қарорига биноан техника (қурилиш, механика ва машинасозлик соҳалари) фанлари ҳамда меъморчилик бўйича илмий мақолалар чоп этилиши лозим бўлган илмий журналлар рўйхатига киритилган (гувоҳнома №00757. 2000.31.01)

Журнал 2007 йил 18 январда Самарқанд вилоят матбуот ва ахборот бошқармасида қайта рўйхатга олинди 09-34 рақамли гувоҳнома берилган

Бош муҳаррир (editor-in-chief) - т.ф.н., профессор А.Н.Гадаев
Масъул котиб (responsible secretary) – т.ф.н. доц. Т.Қ. Қосимов

Таҳририят ҳайъати (Editorial council): т.ф.д., проф. Э.Ю.Сафаров; т.ф.н., проф. Д.О.Журакулов; и.ф.д., проф. С. Аvezбаев; т.ф.д., проф. Р.А.Тураев; к.х.ф.д., проф. Р.Курвонтаев; т.ф.д., проф. А.С.Суёнов; т.ф.н., проф. Э.Х.Исаков; и.ф.д., проф. К.Б. Ганиев; т.ф.д., доц. А.Х. Абдуллаев; т.ф.д., проф. М.Авлакулов; т.ф.н., проф. С.А.Тошпулатов; т.ф.н., доц. Т.М. Абдуллаев; и.ф.д., проф. Т. В. Папаскири (Россия, МГУЗ); и.ф.д., проф. А.В Пылаева (Россия, МГУЗ); и.ф.д., проф. С. А. Липский (Россия, МГУЗ); г.ф.д., проф. С.Б.Аббасов; т.ф.д., проф. С.Саидқосимов; ф.м.ф.д., проф. Д.Ш.Фозилова; и.ф.д., проф. Т.Х.Фарманов; г.ф.д., проф. Г.Нюсупова (Қозоғистон); к.х.ф.д. проф. А.Х.Хамзаев; т.ф.д., проф. В.В.Михольская (Россия, МИИГАиК); г.ф.д., проф. Н.Қ.Комилова; к.х.ф.д. проф. В.В. Северцов (Беларуссия); т.ф.н., доц. Ғ.А.Артиков; т.ф.д., проф. Ж.Х.Жуманов; т.ф.д., проф. А.В.Дуброский (Россия, СГУГТ); т.ф.д., проф. М. Khanif (Малайзия); т.ф.н. Дж.Ниязов (Тожикистон); т.ф.ф.д., доц. Ш.Ш.Тухтамшев, т.ф.ф.д., доц. Ф.Э.Гулмуродов

Таҳририят манзили: 140147, Самарқанд шаҳри, Лолазор кўчаси, 70.
Телефон: (366) 237-18-47, 237-14-77, факс (366) 237-19-53. ilmiy-jurnal@mail.ru

Муассис (The founder): Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети
Обуна индекси 5549

© СамДАҚИ, 2023

3. Смирнов П.М., Муравин Э.А. Агрехимия Масква “Колос” 1984 й 5-6-10-11-12-13-14-56 б.
- 4.https://en.wikipedia.org/wiki/Trifolium_alexandrinum
- 5.<https://www.feedipedia.org/node/>.
- 6.<https://www.fao.org/publications/card/ru/>
- 7.<https://www.sciencedirect.com/topics/agricultural-and-biological-sciences/trifolium-alexandrinum>
- 8.<https://alienplantsbelgium.myspecies.info/content/trifolium-alexandrinum>

YAYLOV VA LALMI YERLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA O‘ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN ILMIY IZLANISHLAR TAVSIFI.

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

TIQXMMI Yer resurslarini boshqarish fakulteti dekani, i.f.f.d. (PhD), dotsent

Ne‘matov Izzatillo Rahmat o‘g‘li, tayanch doktorant

Abdullayeva Maxfuza Tulqinovna xodimlar bo‘limi boshlig‘i

“O‘zdavyerloyiha” DILI

Annotatsiya: Ushbu maqola yaqin yillar ichida yalov va lalmi yerlariga oid mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, bu yerlardan samarali foydalanishga doir bo‘lgan mahaliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, ilmiy yangiliklar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: demografik, yaylov, lalmikor, burg‘ulash, «Water-box», masofadan zondlash, 3D model, monitoring, degradatsiya, geobotanik tadqiqot.

Bugungi kunda mamlakatimizda eng dolzarb bo‘lib turgan muammolardan biri aholini tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Demografik holatiga e‘tibor qartadigan bo‘lsak, aholi sonining yildan yilga sezilarli miqdorda o‘sib kelayotgani va 30 yildan so‘ng bir necha barobar ko‘payishini bilib, ammo yer miqdorining o‘zgarmasligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan yilga ortib borayotgan bir paytda, global o‘zgarishlar natijasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning holatining yomonlashuvi, qurg‘oqchilik, saxrolanish jarayonlarining kuchayishi, tuproqlarning meliorativ holatining buzilishi va sho‘rlanish kabi salbiy ta‘sirlar yuzaga kelmoqda. Bular esa albatta qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning bir qarich maydonidan ham oqilona va tizimli foydalanish, bu yerlarni alohida muhofaza etishni yanada takomillashtirish kabi dolzarb masalalarni oldimizga qo‘ymoqda.[7]

Mamlakatimizda yer qonunchiligini muhofaza qiluvchi bir qancha qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilingan. 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi”da “Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb takidlab o‘tilgan.[1]

O'zbekiston Respublikasi davlat Soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022 yil 1 yanvar holati ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil etib, shundan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoni 27148,5 ming gektar, yoki Respublika umumiy yer maydonining 60,5 % ni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning kata qismini yaylov yerlari tashkil etib, yaylov yerlarining ulushi 21152,0 ming gektar, lalmikor yerlar esa 768,2 ming gektar maydonni egallagan.[6]

Bugungi kunga kelib sug'orilmaydigan yaylov va lalmi yerlaridan samarali foydalanish davlat darajasida ahamiyat kasb etmoqda. Chunonchi yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha 2019 yil 20 mayda O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida"gi 538-sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda yaylovlar to'g'risidagi qonunchilik, yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasini tartibga solishda vakolatli davlat organlari, ularning vazifa va majburiyatlari, yaylovlarni monitoring qilish, geobotanik tadqiqotlar o'tkazish va boshqa bir qator davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.[2]

"Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PF-24-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko'ra mamlakatimizda yaylovlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek, kavrak yetishtirishni yanada rivojlantirish hamda yaylovlarda resurs tejoychi texnologiyalarni keng qo'llashga doir bo'lgan bir qator vazifa va chora tadbirlar rejasi belgilab berilgan.[3]

"Lalmi va yaylov yer uchastkalarida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun ozuqabop ekinlar yetishtiruvchilarning sug'orish tik quduqlarini burg'ulash bilan bog'liq harajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 iyuldagi 587-sonli qarori qabul qilindi va bu bilan lalmi va yaylov yerlarida ozuqabop ekinlarni yetishtirish uchun suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish imkoniyati yaratildi.[4]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 299-sonli qaroriga asosan mavjud 21 mln. gektar yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanish, o'simliklarning turi va sonini ko'paytirish, hosildorligini oshirish, chorva mollarini tartibli almashlab boqishni yo'lga qo'yish, yaylov va pichanzorlar degradatsiyasining oldini olish maqsadida geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish yuzasidan tadbirlar belgilangan.[5]

Mamlakatimizda yaylov va lalmikor yerlardan samarali foydalanishga bo'yicha ilmiy izlanishlar yaqin yillar mobaynida e'tibordan ortda edi. Hozirda kelib esa bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan sug'orilmaydigan qishloq ho'jaligi yerlari, ya'ni, lalmi va yaylov yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy

izlanishlar olib borilgan. Jumladan A.A.Varlamov, S.N.Volkov, V.V.Vershinin, S.A.Gulchenko, Y.M.Maul, S.N.Zaxarova, A.M.Chandra, V.Y.Sektimenko, S.Avezboyev, M.I.Ruzmetov, R.A.Turayev, G.T.Parpiyev, Sh.K.Narbayev, O.O.Davronov, R.N.Sharopov, B.N.Inamov, S.B.Ro'ziboyev va boshqa shu kabi olimlar tomonidan lalmi va yaylov yerlari ilmiy asoslangan holda o'rganilgan.

M.I.Ruzmetov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida yaylov tuproqlarining qatlamlari qalinligi va xossa-xususiyatlariga bog'liq holda sug'oriladigan yerlardagi kabi ekin turlarini yetishtirish, bog'-uzumzor, o'rmon-mevali daraxtlar uchun maqbul ekanligi isbotlangan. «Water-box» suv yig'ish qurilmasidan foydalangan holda respublika bo'yicha ilk bor Jizzax viloyati Zomin tumanida va Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi tog', tog'oldi yaylov yerlarida hamda Buxoro viloyati Vobkent tumani cho'l yaylov yerlarida tashkil etilgan pilot maydonchalarda daraxt ko'chatlarini o'stirish sinovdan o'tkazilgan.[8]

Qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlarning monitoringini miqdoriy jihatdan yuritish metodologiyasi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha R.A.Turayev tomonidan o'rganilgan.[9]

Yaylovlardan foydalanish samaradorligini aniqlash va unumdorligini tiklash uchun yaylovlar degradatsiyasidan ko'rilgan zararni baholash uslubiyati Sh.K.Narbayev tomonidan ishlab chiqilgan. Bundan tashqari ushbu ilmiy tadqiqot ishda yaylovlardan barqaror foydalanish tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha takliflar berilgan.[10]

O.O.Davronov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda Buxoro viloyati misolida masofadan zondlash orqali yaylov yerlari monitoringini yuritish ishlari va degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarni normativ qiymatini belgilashda sifati jihatidan «yuqori», «o'rtacha», «o'rtachadan past» va «past» yaylovlarga ajratish orqali 1,0, 0,9, 0,8 va 0,7 koeffitsient qo'llagan holda hisoblash va tabaqalashgan yer solig'i belgilash taklif etilgan.[11]

Lalmi hududlarining iqlim va yog'ingarchilik sharoitlaridan kelib chiqib foydalanish tajribalarini inobatga olgan holda ekinlarni joylashtirish mexanizimini takomillashtirish ishlari S.B.Ro'ziboyev tadqiqotida keltirilgan.[12]

R.N.Sharopovning ilmiy tadqiqot ishlarida lalmi yerlarni innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali monitoring qilish ilmiy asoslangan va Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani Alisher Navoiy nomli massivi lalmi yerlar hududining 3D o'lchamli modeli tuzilgan. Bundan tashqari lalmi yerlar xususiyatlariga qarab ulardan samarali foydalanish bo'yicha yuqori yarim cho'l pog'onasi mintaqasiga «qisqa muddatli» (5 yillik) va quyi adir pog'onasi mintaqasiga «o'rta muddatli» (10 yillik) va yuqori adir pog'onasiga esa «uzoq muddatli» (20 yillik) yer tuzish loyihalari ishlab chiqilgan.[13]

G.T.Parpiyev, Q.M.Xojiyev va b. tomonidan yozilgan "Tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo'yicha qo'llanma" da tabiiy yaylovlar to'g'risidagi miqdor va sifatga doir bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash uchun o'tkaziladigan monitoringni yuritish tartibi ko'rsatilgan.[14]

"O'zdavyerloyiha" DILI ilmiy hodimlari tomonidan yozilgan "O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar

o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma"da pichanzor va yaylovlardan oqilona va samarali foydalanish, yaylov yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va kadastrini yuritish, yaylov yerlarining me'yoriy qiymatini aniqlash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni olish maqsadida o'tkaziladigan geobotanik tadqiqotlar bilan bog'liq barcha ishlarni qamrab olgan.[15]

G'.T.Parpiyev, X.Q.Bag'bekov va K.M.Xaitovalar tomonidan degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarining holati taxlil qilingan. Degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarida chorva mollarini tog' oldi yaylovlarda navbatlab boqish, cho'l yaylovlarda esa almashlab boqish bo'yicha yer tuzish loyihalarining afzalliklari bayon etilgan.[16]

B.T.Shodiyevning "Qorako'chilikda yaylovlardan foydalanishning samarali yo'llari" mavzusidagi ilmiy izlanishida "Yaylovlarning ekologik-iqtisodiy samaradorligi" tamoyilini "Yaylovlardan foydalanishni samarali boshqarishning uyg'unlashgan tamoyillari" tarkibiga kiritishni taklif etgan.[17]

Xulosa:

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning katta qismini yaylov maydonlari tashkil etadi. Lekin yaylov yerlari ham hozirga kelib unumdorligi qariyb 2 baravarga tushib ketgan. Antropogen omillar natijasida mamlakatimizda degradatsiyaga uchragan yaylov maydonlari ortib bormoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shinu ko'rsatadiki yaylovlar samaradorligini oshirishda tabiiy o'simlik qoplamini geobotanik tadqiqotlar natijasida muntazam kuzatib borish va ozuqabop o'simlik qoplamini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, almashlab boqishni to'g'ri joriy etish, inqirozga uchragan yaylovlarni qayta tiklashda zaruriy choralarni ko'rish kelgusida o'zining samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida"gi 538-sonli qonuni, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-24-sonli farmoni, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Lalmi va yaylov yer uchashtalarida tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun ozuqabop ekinlar yetishtiruvchilarning sug'orish tik quduqlarini burg'ulash bilan bog'liq harajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 587-sonli qarori, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 299-sonli qarori, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasining Yer fondi-Toshkent, 2022.
7. Narbayev Sh.K., Ne'matov I.R. Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati va muammolari // "O'zbekiston zamini" ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal.- Toshkent: "O'zdavyerloyiha" DILI, 3/2021.-25-b.

8. Ruzmetov M.I. Yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari: Q.x.f.d. (DSc) dissertatsiya. - Toshkent, 2021.
9. Turayev R.A. Sug‘oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish: T.f.d. diss.avtoreferati. - Toshkent, 2021.
10. Narbayev Sh.K. Yaylovlardan foydalanish tizimini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati.- 2018.
11. Davronov O.O‘. Masofadan zondlash orqali yaylov yerlari monitoringini yuritish: q.x.f.f.d (PhD) diss.avtoreferati.- 2022.
12. Ro‘ziboyev S.B. Lalmi yerlarda foydalanishni tashkil etishda yer va ekin turlarini optimallashtirish: t.f.f.d (PhD) diss.avtoreferati.- 2022.
13. Sharopov R.N. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali lalmi yerlarni monitoring qilish ishlarini takomillashtirish: q.x.f.f.d (PhD) diss.avtoreferati.- 2022.
14. Parpiyev G‘.T., Hojiyev Q.M., Norqulov M.N., Davronov O.O‘., Akramov I.L., Bag‘bekov H.K., Xakimov B.B., Xaitova K.M. Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘llanma / Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: «Turon-Iqbol», 2022. - 36 b.
15. Ruzmetov M.I., To‘rayev R.A., Davronov O.O‘., Norqulov M.N., Akramov I.L., Bag‘bekov H.K., Xakimov B.B., Xaitova K.M. O‘zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma / Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: «Fan ziyosi», 2022. – 156 b.
16. Parpiyev G‘.T., Bag‘bekov X.K., Xaitova K.M. Degradatsiyaga uchragan tog‘ oldi va cho‘l yaylovlari holati va ulardan samarali foydalanish yo‘llari //“Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - Farg‘ona, 2021. – 817-829 betlar.
17. Shodiyev B.T. Qorako‘lchilikda yaylovlardan samarali foydalanish yo‘llari // “Innovatsion texnologiyalar” Ilmiy-texnik jurnal. – Qarshi: QarMII, 2021. №1(41). – B. 90-95.
18. www.lex.uz

IMPROVING THE METHOD OF FORMING THE ACTUAL GEOINFORMATION MONITORING DATABASE OF AGRICULTURAL LANDS

Mirzakarimova Gulshanoy Mirzarakhmat qizi *Assistant*

Murodilov Khasanboy Tolibjon o‘g‘li *Master's student*

Ferghana Polytechnic Institute,

Xasanov Otabek *Master's student*

Samarkand State University of Architecture and Construction

Abstract: Geoinformation monitoring is a critical tool for effective agricultural planning and management, providing accurate and up-to-date information about crop health and land use. However, forming an actual geoinformation moni-

Мундарижа

| | |
|---|-----|
| Авезбаев С., Абдуқодирова С.Н. Ўзбекистонда агрокластерларнинг саноат корхоналарига ер ажратиш масалалари | 4 |
| Папаскири Т.В., Станислав Л. А. Землеустройство и землеустроительное образование в россии: закономерности развития и особенности текущего момента | 13 |
| Ёрматова Д.Ё., Ўсаров Ў.Т. Рақамлаштириш, ер ресурсларидан фойдаланиши ва -“ақлли кишлоқ хўжалиги” | 21 |
| Khakimova K.R., Ibragimov L.T., Madaminova S.Kh. Checking the results obtained when conducting a ground monitor and drawing up an information bank | 26 |
| Abdullayev B.N., Turdiev J.D., Saitqulova Z.A., Musaeva Y.I. Oqdaryo tumani tuproqlarining meliorativ holati | 31 |
| Aynakulov M.A., Yarmatova D.S. Yer resurslaridan foydalanish va atrof-muhit muhofazasiga nazariy qarashlar | 35 |
| Aynaqulov H.A., Yarmatova D.S. Yer resurslari – ekologiya va menejment | 41 |
| Gapparov B.N., Isanov A.P. Yer resurslaridan foydalanish qonuniyatlari va tamoyillari | 46 |
| Isanov A.P. Yer resurslaridan foydalanishning ilmiy asoslari | 51 |
| Musurmonqulov S.B., Aynaqulov H.A. Yerning o‘ziga xos xususiyatlari va tuproq unumdorligini oshirish turlari | 54 |
| Muxitdinov A.B. Yer resurslari va biologik resurslar o‘zaro yaxlit tizim sifatida | 60 |
| Muxitdinov A.A. Hududiy yer resurslarini iqtisodiy baholash mexanizmlari | 63 |
| O‘razaliyev F. B., Axunjanov A.M. Rekreatsion jarayonlarni shakllantirishda yer resurslarining alohida o‘rni va ahamiyati | 67 |
| O‘rozmatov E. S., Soatov A.M. Yerdan foydalanish samaradorligini oshirishning yo‘nalish va mexanizmlari | 71 |
| Soatov A. M. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yo‘nalishlari | 75 |
| Toshtemirova N.N. Suv resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yo‘nalishlari | 79 |
| Xoliqov D.R. Yer resurslarini muhofaza qilish sohasidagi xalqaro munosabatlar | 83 |
| Xudaybrdiyev B.B. Yer resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, foydalanuvchilar bo‘yicha taqsimlanish mexanizmlarini asoslash | 89 |
| Хайтова К.М. Swot-анализ эффективности управления пастбищными ресурсами в Узбекистане | 93 |
| Султанова Н.А. Управление плодородием овощепригодных почв апшеронского полуострова | 100 |
| Parpiyev G‘.T., Tojiyev Z.T., Toxirov K.N., Bag‘bekov X., Ibroximov S., Yerlarni degradatsiyadan himoya qilish usullari | 106 |
| Аминжанова М.Б., Суюнов А.С., Аббасов С., Балкиев Н.Б. Тематическая карта локаций ключевых участков селеопасных зон самаркандской области | 114 |
| Вахриев М.В., Оьматов R.K. Qayta ko‘rib chiqilgan universal tuproq yo‘qotish tenglamasi (rusle) modelidan foydalangan holda eroziya natijasida tuproq yo‘qotilishini baholash bo‘yicha sharh | 120 |
| Shoxo‘jaeva Z.S. Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanishning iqtisodiy ahamiyati va uni takomillashtirish yo‘llari | 130 |
| Романюк Ю.А. Динамика изменения землепользования ташкентской области с использованием исторических карт | 137 |
| Пылаева А.В. Развитие информационной культуры управления: искусственный интеллект и цифровая модель территории. опыт российской федерации | 144 |

| | |
|--|-----|
| Turdikulov Kh.Kh., Mirzaakhmedov S.Sh. Principles of land law | 155 |
| Shakarov Sh.J., Xaldarov N., Nomirov M.N., Ergashev I.Sh. Yer resuruslarining inson hayotidagi tutgan o'rni. | 162 |
| Мелиев Б.А., Ёрмаматов Ш., Эшмаматов Э.Д., Исомиддинов И. Қарнабчўли ланд-шафтларининг тупроқ-иклим шароити ва унинг тупроқ эрозиясига таъсирини баҳолаш | 166 |
| Рахимов У.А., Ярқулов З.Р., Ортиков Ж.У. Модели построения и пример практического применения цифровых моделей рельефа | 172 |
| Ахунжанов А.М., Омонов И.Х. Геометрик нивелирлашнинг юқори аниқликка эга бўлган муҳандислик-геодезик усулини қўллаш | 177 |
| Qutlimurotov J.N. Xorazm viloyati sug 'oriladigan yerlarining meliorativ holati | 180 |
| Abukadirova M.A., Yokubov Sh.Sh., Xidirova B., Rasulov I. Improving the method of applying cartographic research to the management and planning of land resources. (based on gis technology) | 185 |
| Madumarov B.B. Sun'iy yo'ldosh o'lchovlari natijalarini qayta ishlash | 190 |
| Doniyor E., Yokubov Sh.Sh., Rasulov I., Xasanov O. Theoretical and practical relevance of the formation of earth account monitoring using modern software. | 194 |
| Маҳмудов Ў.Х. Алмашлаб экиш тизимларида кузги буғдойдан кейин такрорий экилган экинларнинг ўсиши ва ривожланиши..... | 198 |
| Narbayev S. K., Ne'matov I.R., Abdullayeva M.T. Yaylov va lalmi yerlaridan samarali foydalanishda o'zbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tavsifi. | 200 |
| Mirzakarimova G. M., Murodilov K.T., Xasanov O. Improving the method of forming the actual geoinformation monitoring database of agricultural lands | 204 |
| Беканов К.К., Очилов Ш.Ш. ГАТ технологиялари асосида web-карталари сериясини яратиш масалалари (қорақалпоғистон республикаси мисолида) | 209 |
| Abdurakhmanov A.A., Yokubov Sh. Sh. Theoretical foundations for managing the use of land resources in the republic of uzbekistan..... | 215 |
| Михольская В.В., Журакулов Д.А. О необходимости конкретизации основных сведений об объектах незавершенного строительства, подлежащих внесению в единый государственный реестр недвижимости..... | 220 |
| Ganiyev Y.Y., Ibodullayev S. Conveniences in preparation of topographic projects of the place in modern geodetic instruments: analysis and conclusions. | 227 |
| Bobomurod T.M., Achilov B.S. Sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlarini qayta ishlash..... | 231 |
| Xalilov D.B. Avtomobil yo'llarini loyihalash va geodezik ishlarda indorcad dasturidan foydalanish afzalliklari | 241 |
| Madumarov B.B., Tursunboyev H.M. Tadqiqotlar va qurilish uchun geodezik asoslar. | 248 |
| Байзақов А.А. Юқори малакали мутахассислар тайёрлашда инновацион аралаш таълимнинг муаммолари ва истиқболлари | 255 |
| Набиев А., Байзақов А., Муртазаева (Жабборова) А.Б. Глобаллашув даврида “ер ресурсларидан фойдаланиш ва давлат кадастрлари” йўналишида компетентли кадрлар тайёрлашда шахсга йўналтирилган таълим технологияларини қўллашнинг долзарблиги | 265 |
| Tashpulatov S.A., Mehmonov B.Sh. Application of gis technologies in spatial analysis of city development- an example of the city of tashkent..... | 274 |
| Tuxtamishiev Sh.Sh., Manoev S.B., Tuxtamishoeva M.Sh. Shovqin tarqalishidan himoyalaniш va xaritalarni yaratilish turlari..... | 281 |
| Inamov B.N., Abdusalomov A.A. Qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketgan ekin yerlarining sabalari va yechimlari xususida..... | 285 |
| Норбоева Д.Ф., Ахмедова М.Ф. Замонавий гис технологияларидан фойдаланиб қишлоқ хўжалиги карталарини яратиш масалалари | 290 |